**XALQ DEPUTATLARI O'ZBEKISTON TUMANI KENGASHI**
**QARORI**

2024 - yil 2 - aprel VI-78-30-11-161-K/24 O‘zbekiston tuman hokimligi

## Tuman hududida Sulaymon hamda Shodlik mahalla fuqarolar yig‘inlarining chegaralarini belgilash va o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.03.2014 yil kungi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Nizom *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 10-son, 107-modda; 2017 y., 35-son, 931-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.04.2019 y., 09/19/302/2924-son)*ga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 13-sentyabrdagi SQ-624-IV-sonli qarori hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2022-yil 17-noyabr kungi 366-01-0-F/22-sonli farmoyishiga muvofiq, tumandagi “Sulaymon” mahalla fuqarolar yig‘inlari fuqarolarining 2023-yil 23-sentabrdagi 13-sonli, “Shodlik” mahalla fuqarolar yig‘inlari fuqarolarining 2023-yil 25-dekabrdagi 15-sonli iltimosnomasi, mahalla fuqarolar yig‘inlari vakillar yig‘ilishi qarori, tuman hududiy komissiyasi takliflarni ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni*(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda)*ning 24-moddasiga asosan xalq deputatlari O‘zbekiston tumani Kengashi

**Q A R O R Q I L A D I :**

**1.** Tumandagi “Sulaymon” mahalla fuqarolar yig‘inining 2023-yil 23-sentabrdagi 13-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 13-sentyabrdagi SQ-624-IV-sonli qarori hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2022-yil 17-noyabr kungi 366-01-0-F/22-sonli “Farg‘ona viloyatining Uchko‘prik, O‘zbekiston, Dang‘ara, Qo‘shtepa, Toshloq, Farg‘ona tumanlari va Qo‘qon, Marg‘ilon, Farg‘ona shaharlari chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi farmoyishida O‘rta qishloq mahalla fuqarolar yig‘inining bir qismi Qo‘qon shahri tarkibiga o‘tkazilgan. O‘rta qishloq mahalla fuqarolar yig‘iniga qarashli 180 ta xonadon, 935 nafar aholisi bolgan Tosh qishloq aholi punkitini “Sulaymon” mahalla fuqarolar yig‘ini tasarrufiga qo‘shish taklifi to‘g‘risida”gi Iltimosnomasi, “Shodlik” mahalla fuqarolar yig‘ini

fuqarolarining 2023-yil 25-dekabrdagi 15-sonli Iltimosnomasiga muvofiq “Shohlik” mahalla fuqarolar yig‘inida aholi soni keskin o‘sib borayotganligini hisobga olib, Shodlik mahalla fuqarolar yig‘ini binosiga murojaat bilan borish ushun masofani uzoqligi, y’ani 4-5 km masofani hamda orada Bog‘i Eram, Oqtepa, Qulibek MFY hududini bosib o‘tayotganligini hisobga olib, aholining talab va istaklariga asosan Oqtepadasht qishlog‘ini Bog‘i Eram mahalla fuqarolar yig‘ini hududiga qo‘shib berish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Tumandagi “Sulaymon” mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashining O‘rta qishloq mahalla fuqarolar yig‘ini Qo‘qon shahri tarkibiga o‘tkazilganligi sababli uning tasarrufidagi Tosh qishloqni “Sulaymon” mahalla fuqarolar yig‘ini tasarrufiga qo‘shish yuzasidan 2023-yil 23-sentabr kungi 9-sonli qaroriga asosan Tosh qishloq aholi punkitini “Sulaymon” mahalla fuqarolar yig‘ini tasarrufiga, “Shodlik” mahalla fuqarolar yig‘ini Kengashining 2023-yil 25-sentabr kungi 15-sonli qaroriga asosan Oqtepadasht qishlog‘i aholi punkitini “Bog‘i Eram” mahalla fuqarolar yig‘ini tasarrufiga qo‘shib berish to‘g‘risidagi takliflari hamda tuman yer resurslari va davlat kadastr bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan yangi sxematik xaritalar ma’qullansin va tasdiqlansin.

**3.** Mahalla uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i **(E.Nishonov)** “Sulaymon”, “Bog‘i Eram” mahalla fuqarolar yig‘iniga qo‘shilgan Tosh qishloq, Oqtepadasht aholi punkitlarini aholisini qayta xatlovdan o‘tkazilib, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishiga ko‘maklashsin.

**4.** Tuman ichki ishlar bo‘limi (**S.Abdullaev**), Davlat soliq inspeksiyasi (**U.Fozilov**), tuman Statistika bo‘limi (J.Madrahimov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (**M.Sattorov**)ga:

- mahallalarnining chegaralari o‘zgarishi munosabati bilan tegishli hududda yashovchi fuqarolarning fuqarolik pasportlariga, soliq, statistika hisobotlari va boshqa tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish, qo‘shimcha shtat birliklarini ajratish va moliyalashtirish masalalarini hal etish vazifalari topshirilsin.

**5.** “Yaypan ovozi” gazetasi taxririyati (**I.Maxkamov**), tuman hokimligi Axborot xizmati (**D.Jabborov**) mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va hokimlik rasmiy veb saytiga joylashtirish ta’minlansin.

**6.** Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman Kengashining “Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta`minlash masalalari bo`yicha” doimiy komissiyasi **(A.Imomov)**, hamda Mahalla uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i **(E.Nishonov)**zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **Sh.Yuldashev**